



KICHIK VA O'RTA BIZNES KORXONALARIDA BILIMLAR BOSHQARUV TIZIMINI JORIY QILISHDA MUHIM OMILLAR

i.f.d. Qosimova Dilorom Sobirovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
diloromkos@bk.ru

Kabulova Nurgo'zal Umirbek qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
guzalumirbekona@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada kichik va o'rta biznesda bilimlar boshqaruv tizimini muvaffaqiyatli yo'lga qo'yish va ularni amaliyotga joriy qilishda qaysi omillar muhim rol tutishini izchil tadqiq qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi kichik va o'rta korxonalarni bilimlar boshqaruv tizimini qanday joriy qilinishiga ta'sir qiluvchi turli omillarni ko'rib chiqish. Bu omillar to'rtta asosiy yo'nalishga birlashtirilgan: texnologiya, tashkilot, atrof-muhit va inson xulq-atvori.

Kalit so'zlar: kichik va o'rta biznes, bilimlar boshqaruv tizimi, Texnologiya-Korxonona- Muhit modeli, texnologiya.

ВАЖНЫЕ ФАКТОРЫ ВНЕДРЕНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЗНАНИЯМИ НА МАЛЫХ И СРЕДНИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

д.э.н, Касимова Дилором Собировна
Ташкентский государственный экономический университет
Кабулова Нургузал Умирбековна
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье последовательно исследуется, какие факторы играют важную роль в успешном создании системы управления знаниями в малом и среднем бизнесе и их внедрении. Основная цель исследования – изучить различные факторы, влияющие на внедрение систем управления знаниями на малых и средних предприятиях. Эти факторы сгруппированы в четыре основные области: технологии, организация, окружающая среда и поведение человека.

Ключевые слова: малый и средний бизнес, система управления знаниями, модель Технология-Предприятие-Среда, технология.

CRITICAL FACTORS FOR KNOWLEDGE MANAGEMENT SYSTEM ADOPTION IN SMALL AND MEDIUM ENTERPRISES

*DSc Kasimova Dilorom Sobirovna
Tashkent State University of Economics
Kabulova Nurguzal Umirbek kizi
Tashkent State University of Economics*

Abstract. *The article consistently researches which factors play an important role in the successful adoption of a knowledge management system (KMS) in small and medium-sized businesses and their implementation. The main purpose of the study is to examine the various factors that influence the implementation of KMS in small and medium-sized enterprises. These factors are grouped into four main areas: technology, organization, environment and human behavior.*

Key words: *small and medium business, knowledge management system (KMS), Technology-Enterprise-Environment model (TOE-model), technology.*

Kirish.

Kichik va o'rtta biznes korxonalari ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida sanoatning yetakchi sohalarini yangi texnologiyalarga o'tishda tobora o'z o'rnini topib bormoqda. Ular yangi fikrlar va ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan ish jarayonini ta'minlovchi butun tizimni asosiy bog'lovchilik sifatini o'zlarida namoyon etmoqdalar.

Ayniqsa, har yili an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti dunyo tajribasida deyarli o'xshashi yo'q mexanizmdir. Gap shundaki, mamlakatimiz Prezidentining biznes vakillari bilan o'tadigan uchrashuvi shunchaki muloqotga asoslanmaydi, balki sohadagi muammolar o'rtaga tashlanib, aniq yechimlar beriladi. Masalan, 2021 yilda bo'lib o'tgan ilk ochiq muloqot natijalari bo'yicha 57 ta, 2022 yilda 55 ta, o'tgan yili esa 56 ta tashabbus ilgari surilib, o'zining ijobiy yechimini topdi. Qabul qilinayotgan farmon va qarorlar biznes egalarining faoliyatiga yengillik berib, ish rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishning muhim omillaridan biridir. Bu borada kichik tadbirkorlik subyektlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida keyingi yillarda Fayzieva (2024) tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 50 dan ortiq farmon va qarorlari, vazirlar mahkamasining qarorlari qabul qilingan. Hozirgi shiddatli o'sayotgan bozorda tadbirkorlik obyektlarining omon qolish uchun richagi faqatgina barqaror moliyaviy aktivlar emas balki innovatsiyalarni va salohiyatli boshqaruv tizimini yo'lga qo'yishni talab qilmoqda. Ma'lumki, ko'pchilik kichik korxonalar faoliyatining birinchi yilidan so'ng muvaffaqiyatsizlikka uchraydi va korxonalarining atigi 5-10 foizi besh yildan keyin omon qoladi. Chet elda kichik biznesning yashovchanligi birmuncha yuqori: kichik va o'rtta korxonalarining 25 foizining ishlash muddati 2 yildan kam, yarmi 5 yilgacha, 30 foizdan ko'p bo'lmagani esa 15 yilgacha yashaydi. Shuning uchun kichik biznesda muhim muvaffaqiyat omillarini belgilash muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Bugungi bozordagi raqobatga bardoshli bo'lish ayniqsa kichik va xususiy tadbirkorlik bilimlarni boshqarish tizimiga muhtoj ya'ni ular o'z bozori, mijozlari va jarayonlari haqida yaxshi bilimga ega bo'lishlari kerak. Bunday boshqaruv bilimi tizimiga ega bo'lmagan tadbirkorlik subyekti raqobat bozorida uzoqqa bormaydi.

Bilimlarni boshqarish- bu tashkilot o'z bilimlarini qanday boshqarishi bilan bog'liq. Bu yangi ma'lumotlarni to'plash, yangi g'oyalar yaratish, mavjud bilimlarni tartibga solish, ulardan

samarali foydalanish va ularni yo'qotish yoki noto'g'ri ishlatishdan himoya qilishni o'z ichiga oladi. Buni tushunish uchun mahsulot misolida ko'rib chiqsak, bozor va mijozlarni o'rgangan holda yangi g'oyalarni uchun ma'lumot izlash (bilimlarni yig'ish jarayoni), keying bosqichda ma'lumotlarni tahlil qilib korxonamiz salohiyatiga moslagan holda yangi mahsulot yaratish (kodlash), yangi mahsulotni yaratish va taqdim etish (bilimlarni amalda qo'llash), mahsulotimizning korxonamiz mulki sifatida asrash (himoyalash).

"Bilimlarni boshqarish" atamasi kompaniyada uning faoliyati va rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun axborot va bilimlarni tashkil etish va tasniflash sifatida faqat 20-asrning oxirida e'tiborga tushdi. Shuni ta'kidlash kerakki, bilimlarni boshqarish yangi hodisa emas, chunki ko'p asrlar davomida texnologik ko'nikmalar va g'oyalarning insondan odamga "o'tishi" mavjud (Tsiskiev, 2021).

Ko'pgina tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bu kontseptsiya 1990-yillarda yirik korporatsiyalarda axborotni qayta ishlash muammolari tufayli paydo bo'lgan. Amerikalik olimlar o'zlarini "bilimlarni boshqarish" atamasi yaratilishining muallifi deb da'vo qilmoqdalar: "bilimlarni boshqarish" ta'rifini birinchi bo'lib qo'llagan Karl Uig, "bilimlarni boshqarishni to'plash, tarqatish va samarali foydalanish jarayoni" deb ta'riflagan (Khalin, 2018).

Bilimlarni boshqarish tizimi bu faqat texnologiyalardan iborat emas, bu korxonamiz maqsadlari, ish jarayoni, to'g'ri strategiya joriy qilinishi, shuningdek bunga umumiy bir ta'rif berish qiyin, chunki bu har bir korxonamizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi deydi Makeev (2018). Masalan, Rossiya korporatsiyalarida bilimlarni boshqarish axborot texnologiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq jarayonlar, hujjatlar aylanishini optimallashtirish sxemalari, axborotni saqlash, qidirish, elektron aloqa tizimlari va boshqalarni o'z ichiga oladi. (Tsiskiev, 2021)

Bilimlarni boshqarishning muhim muammosi - uni uzatishning qiyinligi. Bu juda ko'p vaqt talab qiladigan uzoq jarayon. Bilimlarni o'zlashtirish va uzatishning murakkabligi tufayli tashkilotlar kerakli bilimlarni qamrab oluvchi o'qitilgan mutaxassislarni yollashga harakat qiladilar. Yana bir muammo kerakli axborotlarni tanlash.

Bilimlarni boshqarish tizimi esa bu texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy qilgan holda uni yanada mukammallashtirish. Bu tizimda faqatgina texnologiyalar emas balki insonlar va ularning ta'siri va texnik jihatlari birga ishlaydi. Bu tizimni to'g'ri tashkillashtirish, ulardan xodimlar samarali foydalanish uchun o'qitish joriy etish va bu tizim korxonamiz va xodimlar foydasiga ishlayotganini ta'minlash kerak.

Bilimlarni boshqarish telekommunikatsiya, texnologiya, tog'-kon sanoati, bank va transport sohalar va yana bir qator sohalaridagi kompaniyalarda tomonidan joriy etish orqali takomillashib bormoqda. Bularga misol qilib Rossiyaning ko'zga ko'ringan quyidagilarni korxonalarini aytishimiz mumkin: VTB OAJ, "Sberbank" OAJ (moliya sektori), Roskosmos, RosGidro, Rosatom, Rostex, Rosnaso (davlat korporatsiyalari), "Gazprom" OAJ, "Lukoil" OAJ, "Zarubejneft" OAJ va boshqalar (neft va gaz sektori), "Kamaz" AJ, "Admiralty Shipyards" AJ (ishlab chiqarish sohasi) va boshqalar (Zimova, 2019).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot ishida kichik va o'rta korxonalar bilimlarni boshqarish tizimlarini qanday joriy qilish mumkinligini o'rganish uchun bizgacha o'tkazilgan tadqiqot ishlari, maqolalar va ilmiy nashrlarning empirik tahlili o'rganildi, Texnologiya-Korxonamiz-Muhit (TOE-model), Innovatsiya rejimi tarqalish nazariyasi(DOI) va muhim omillar birgalikda va qiyosiy tahlil usullardan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

B4 konsalting kompaniyalaridan biri G'arb mamlakatlarida bir yillik tajribaga ega korporatsiyalar bilimlarni boshqarishda qanday qiyinchiliklarga duch kelishi haqida so'rov o'tkazdi. Natijada quyidagi muammolar paydo bo'ldi:


1. Joriy qilinayotgan tizimni o'rganishga yetarli vaqt ajratilmaganligi- 60%;
2. Strukturaning nomukammalligi – 54%;
3. Rahbariyatning tizimga ishchilarni ishontirish yo'qligi - 46%;
4. Motivatsiya yo'qligi – 46%;
5. Jamoaviy ishdan ko'ra individual ishlarga ko'proq e'tibor berish – 45%.

Stupina ta'kidlashicha, Rossita Federatsiyasidagi korxonalar misolida atigi 28 foizi bilimlarni boshqarish bo'yicha rasmiylashtirilgan strategiyaga ega, 2 foizi esa bu borada ishlab chiqilgan siyosatga ega (Qosimova, 2021). Binobarin, aksariyat rus kompaniyalari bilimlarni boshqarish dasturlariga tizimli va kompleks yondashuvga ega emaslar. Yana muhim fakt, moliyalashtirish tizimi bilan bog'liq. Korporatsiyalarning 55% bo'limlar o'rtasida pul taqsimlaydi, 30% kadrlarni tayyorlash va rivojlantirishga, 10% IT funktsiyalarini o'z ichiga oladi va faqat 5% bilimlarni boshqarish tizimi uchun alohida byudjetga ega.

Bilimlarni boshqarish tizimini tarqatish usullaridagi tahlillarga qaraydigan bo'lsak, kompaniya xodimlarining 90,5 foizi yangi bilim almashishning eng mashhur vositalarini seminarlar va treninglar orqali tajriba almashish deb atashgan; 71,4% – hamkorlikda ishlash, tahlil qilish bilan uchrashuvlar va konferensiyalar; 57,1% - tashkiliy muammolarni aniqlash va hal qilish; 38,1% - innovatsion tanlovlar; professional konferensiyalar – 33,3%; keys-klublar – 9,5% (Tsiskiev, 2021)


Tornatzkiy va Fleischer tarafidan yaratilgan Texnologiya-Korxonalar-Muhit modeli (TOE-model) korxonada information tizimni amalga oshirishda kuchli hisoblanadi va bunda uchta muhim jihatni o'z ichiga oladi, atab o'tadigan bo'lsak texnologiya, korxonalar (tashkilot) va muhit (Oliviera, Martins, 2022). Lippert va boshqalar (2006) fikriga ko'ra TOE-modelini, information sistemani tashkilotda joriy qilish misolida ko'rilganda korxonalar jihatdan unga ta'sir qiluvchi omil sifatida resurslar mavjudligi, shuningdek keyinchalik yaratiladigan sistema tashkilot ehtiyojini ondira olishi, yuqori menejment boshqaruvi va IT infrastrukturaning keng qamrovligi bilan to'ldirilgan. Texnologiya jihatdan kichik va o'rta korxonalarda axborot tizimini joriy etishga ta'sir qiluvchi uchta o'zgaruvchi aniqlandi, ya'ni ular nisbiy afzallik, murakkablik va muvofiqlik (Rogers, 2003). Modelda muhit kontekstida ta'sir ko'rsatuvchi omil tashqi bosim deb beriladi. Lekin bu modelning kamchilik jihati shundaki, model korxonada qandaydir axborot tizimini amalga oshirilishini ko'proq tashkilot jihatdan o'rganib, uni joriyalashda individual darajadagi omillar chetda qolgan. Ushbu tadqiqotda taklif etilgan kontseptual asos, shuningdek, xulq-atvor kontekstini o'z ichiga olgan holda tadqiqotni kengaytirishga qaratilgan. Xulq-atvor kontekstiga kelsak, oldingi tadqiqotlarni o'rganish natijasida ishtirokchilar KMS ularning ehtiyojlari, qobiliyatlari va cheklolarini tushunish muhimligini ta'kidlaganlar. Ya'ni foydalanish qulayligi va buni foydalanuvchi tomonidan tushunilishi, vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan kuchni paydo qiladi.

DOI nazariyasi dastlab texnologiya va g'oyalarning tarqalishi (ya'ni, nima uchun va qanday sodir bo'ladi va qanday tezlikda) bilan bog'liq bo'lgan holda ishlab chiqilgan va individual va tashkiliy darajalarni o'z ichiga oladi. Tashkilot darajasida model o'zgaruvchilarni individual xususiyatlar, tashkiliy tuzilmaning ichki xususiyatlari va tashkilotning tashqi xususiyatlari (tizimning ochiqligi) bo'yicha mustaqil ravishda bog'laydi. O'shandan beri model axborot tizimlari ISni qabul qilish va elektron biznesda qo'llanilgan (Oliviera T; Martins). Yaxlit nuqtai nazarga muvofiq, DOI nazariyasini va TOE modeli birlashtirib tashkilotda bilimlar boshqaruv tizimini joriy qilishdagi ta'sir qiluvchi muhim omillar yanada kengaygan holda asos taklif qilish (1-rasm).



1-rasm. Dastlabki bilimlar boshqaruv tizimi joriy qilishdagi muhim omillar

Alohida shuningdek korxonada faoliyati uchun muhim muvaffaqiyat omillari(CSF) ham mavjud bo'lib, korxonada muvaffaqiyatli boshqaruvida eng ko'p ta'kidlanadiganlari tashkilot ma'daniyati, strategiya, yetakchilik, yuqori boshqaruvni qo'llab-quvvatlash, inson resurslari, rag'batlantirish. Bu umumiy samarador faoliyat uchun taklif etilgan omillar, buni tashkilotda bilimlar boshqaruv tizimni joriyalashda TOE-modeli va DOI nazariyasi integratsiyasi 2-rasmda o'z aksini topadi.



2-rasm. Kichik biznesda bilimlar boshqaruvining tizimga asoslangan modeli

Oldingi ilmiy izlanishlar natijasi tahlil qilgan holda bilimlar boshqaruvi tizimini qabul qilishda ishchilarning quyidagi fikri "vaqt va resurslardan samarali foydalanishga to'sqinlik qilish" ta'sir qiladi. Tashkilot jihatdan ta'sir qiluvchi omillardan yuqori boshqaruvni qo'llab-quvvatlashga o'xshab, top-menejmentning ishtiroki ham texnik yordam qo'shildi. Shuningdek ishchilarning joriyalanishi kutilayotgan tizimga xulq-atvor jihatdan ishchilarning maqsadli ish hissasi istagi bo'lishi, mukammallikka intilish, imkoniyatlarini kuchaytirish, eski tizimdan yangi tizimga o'tish orqali bilimli va motivatsiyaga ega bo'lish omillari rol o'ynar ekan.

Xulosa va takliflar.

Bilimlarni boshqarish amaliyotini tahlil qilish bizga quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

1. Bilimlarni boshqarish sizga asoslangan qarorlarni tezroq qabul qilish imkonini beradi. Ma'lumotni samarali boshqarish va almashishning asosiy foydasi jamoalarning birgalikda ishlashini osonlashtirishdir. Bu nafaqat amaliy nuqtai nazardan, balki axborot almashish parallel ish jarayonlarining samarali ishlashi uchun muhim bo'lishi mumkin.

2. Bilimlarni boshqarish xodimlarning malakasini oshirishga yordam beradi. Hozirgi kunda ko'plab xorijiy korporatsiyalarda turli darajadagi xodimlarning fikr-mulohazalari samarali ishlaydi. Turli xil kelib chiqishi va nuqtai nazariga ega bo'lgan turli xil odamlar guruhi o'z g'oyalarini qo'shishi va tajribalarini baham ko'rishini kompaniyalarimiz amaliyotiga kiritish muhimdir. Yangi g'oyalar va innovatsion yondashuvlarni ta'qib qila olmagan kompaniyalar qisqa umr ko'radi. Kompaniyaning tanqidiy vaziyatlarida sifat menejmentini rivojlantirish uchun xodimlarni o'z-o'zini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlash kerak. To'g'ri rag'batlantirish, masalan, malakasini oshirishda yordam berish, keyin siz o'sha xodimlarni yangi olingan bilimlarini kompaniya manfaati uchun tarqatishga undashingiz mumkin.

3. Bilimlarni boshqarish yangi texnologiyalarga eshik ochadi va bu yanada ko'p axborotlar tizimi bilan ishlash imkoni degani.

Tadqiqotda kichik biznesda bilimlar boshqaruv tizimini qabul qilish, tashkilotda ish jarayonlarini osonlashtirish va ularning yuritishga to'sqinlik qiluvchi omillar tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot muayyan jihatdagi omillar va ularning o'rtasidagi mumkin bo'lgan o'zaro qanday ta'sir qanday bo'lishi ko'rsatilgan. Tadqiqot cheklovi sifatida bu kichik va o'rta biznesning muayyan faoliyat turiga ixtisoslashmaganligi va yirik tashkilotlarlar misolida tahlil qilinmaganligini aytishimiz mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda bu yuqorida ko'rsatilgan cheklovlarni o'rgangan holda yanada kengaytirish va samaradorligini oshirishni taklif qilamiz.

Adabiyotlar/Jumepamyra/Reference:

Fayziyeva A. A (2024) O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari, Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 37-41b

Kasimova Diloram Sobirovna, Adashev Azimjon Urinboevich (2020). *The social significance of small business in the development of the national economy. International scientific and practical conferences. Oktober Warsaw, Poland . Scientific ideas of young scientists / Pomysly naukowe mlodych naukowcow / DOI: http://doi.org/10.37057/P_5 Available at virtualconferences.press*

Khalin V.G., Chernova G.V. (2018) *Digitalization and its impact on the Russian economy and society: advantages, challenges, threats and risks//Management consulting. M. - ISSN: 1726-1139.*

Lippert, S.K., Govindarajulu, C. (2006) *Technological, organisational, and environmental antecedents to web services adoption. Commun. IIMA 6, 147-160.*

Makeev O.A. (2018) *Implementation of the largest knowledge management system in Russia KMS Lighthouse "Business Wikipedia," URL: <http://globalcio.ru/live/projects/391/>*

Oliveira, T.; Martins, M.F. (2022) Literature review of information technology adoption models at firm level. *Electron. J. Inf. Syst. Eval.* 2011, 14, 110–121. Available online: <https://hdl.handle.net/10520/EJC199716> (accessed on 1 June 2022).

Qosimova D.S. (2020) "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik". *Darslik. T.: "Innovacion rivojlanish" nashriyot manba uyi.* 243 b.

Qosimova D.S. (2021) "Xalqaro tadbirkorlik." *Darslik. .T.: "Innovacion rivojlanish" nashriyot manba uyi.* 256 b.

Qosimova D.S. (2024) "Tadbirkorlik va innovatsiyalar". *O'quv qo'llanma. T.: "Innovacion rivojlanish" nashriyot manba uyi.* 240 b.

Qosimova D.S. (2024) *Liderlik. Darslik. T.: "Innovacion rivojlanish" nashriyot manba uyi.* - 208 b.

Qosimova. D.S. (2022) "Xalqaro biznes menejmenti". *Darslik. T.: "Innovacion rivojlanish" nashriyot manba uyi.* 188 b.

Rogers, E.M. (2003) *Diffusion of Innovations* 5th ed.; The Free Press: New York, NY, USA.

Зимова Н.С. (2019) Особенности внедрения системы управления знаниями в российских компаниях // Научный результат. Социология и управление. М. - DOI: 10.18413/2408-9338-2019-5-3-0-7

Косимова Д.С. (2020) Совершенствование регулирования сферы малого и среднего бизнеса. "Инновацион иқтисодиёт шароитида замонавий маркетинг концепцияларидан фойдаланиш" мавзусида республика илмий-амалий анжумани. Т.:ТДИУ. 20 октябр.ТГЭУ

Цицкиев Э.Р. (2021) Роль знаний и управления знаниями в российских корпорациях. *Вестник Тверского государственного университета. Серия: Экономика и управление. № 1 (53).* С. 178–187, doi: 10.26456/2219-1453/2021.1.178–187